

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MAHMUDJONOVA MEXRIBON XURSHEDOVNA

**SODDA GAP TARKIBIDA MONOVALENTLI
BO‘LAKLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
degree in Philology**

Mahmudjonova Mexribon Xurshedovna

Sodda gap tarkibida monovalentli bo‘laklarning semantik-funksional xususiyatlari
(ingliz va o‘zbek tillari misolida) 5

Махмуджонова Мехрибон Хуршедовна

Семантически-функциональные особенности одновалентных компонентов
простого предложения (на материале английского и узбекского языков) 27

Mahmudjonova Mekhribon Khurshedovna

Semantic-functional features of monovalent components of simple sentences
(in the examples of the English and Uzbek languages) 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 60

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MAHMUDJONOVA MEXRIBON XURSHEDOVNA

**SODDA GAP TARKIBIDA MONOVALENTLI
BO‘LAKLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil3867 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchti.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Safarov Shahriyor Safarovich filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich filologiya fanlari doktori (DSc), professor Sarimsoqov Xurshid Abdimalikovich filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.FiL/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____dagi №___ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Z.Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

O‘.O‘.Qo‘ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

D.A.Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida gapning struktur tuzilishi va uning bo‘laklari o‘rtasidagi sintaktik aloqalar masalasida hamda turli tillar tizimini chog‘ishtirma o‘rganish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, valentlik nazariyasiga nisbatan semantik, leksik va stilistik yondashuvlarni bir-biridan farqlash, sodda gap qurilmasida sintaktik birliklarning valentlik ko‘rsatkichlarini tipologik jihatdan qiyoslash tamoyillari masalasida bir qator izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu masalani sintaktik va semantik sath nuqtai nazaridan atroflicha yoritish ehtiyoji bu borada yangicha yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borish zaruratini hamda mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida fonologik, leksik va semantik qatlamlar bilan bir qatorda sintaktik valentlik va sintaktik birliklarning ma‘no va vazifaviy xususiyatlarini aniqlash, ularni tillararo chog‘ishtirma tahlil qilish natijasida erishilgan yutuqlar badiiy tarjimada ham o‘z samarasini bermoqda. Tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sintaktik valentlik hodisasiga turli xil yondashuvlar mavjud. Shu nuqtai nazardan tilshunoslikda yechimini kutayotgan muammolardan biri, ya‘ni qardosh bo‘lmagan tillar gap qurilmalarining paradigmatic va sintagmatic qatlamlarida valentlikni aniqlash, gaplar tuzilishini sintaktik valentlik asosida tahlil qilish va sintaktik birliklarning semantikasini ochib berish kabi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilish ehtiyoji mavjud.

O‘zbek tilshunosligida valentlik nazariyasi bo‘yicha til sathlari doirasida tadqiqotlar olib borilgan, xususan fonologik valentlik keng tadqiq qilingan, leksik va leksik-semantik valentlikni aniqlash, asosan, fe‘lning leksik xususiyatlariga tayanilgan holda amalga oshirilgan. Til birliklarining leksik va semantik valentligining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishda jiddiy yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, sintaktik sathda valentlik borasidagi monografik ishlar nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Sintaktik sathda har qanday mustaqil so‘z turkumi valentlikka ega bo‘lishi mumkinligi haqidagi qarashning mohiyatini ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibini zamonaviy tadqiq metodlaridan komponentlarga va sintaksemalarga ajratish, transformatsiyaning turli xil usullaridan foydalanish orqali qiyoslab ochib berish dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va ravnaqi uchun sohaning yetuk mutaxassislarini tayyorlashda, albatta, tillarni bilish muhim ahamiyatga ega. Xususan, tilshunoslik sohasida ona tilimizni jahon tillari, jumladan, ingliz tili bilan qiyoslab o‘rganish bugungi kun talabidir. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda “xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”¹ masalasining kun tartibiga qo‘yilganligi ham zamonaviy tilshunoslik

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 09.10.2019. № 209 (7439).

sohasini innovasion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 18-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 11-noyabrdagi PQ- 4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida valentlik nazariyasi va tillarni qiyosiy o‘rganish tilshunos olimlarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Yevropa tilshunoslari L.Tener, J.Erben, G.Zandau, K.E.Zommerfeldt, V.Bondsio, R.Longakr, E.P.Logaceva, G.Johanna, L.Gaeta, T.Herbst, S.Schuller, V.Kolarova, D.J.Allerton, S.Luraghi, E.Sausa, A.Malchukov, B.Komri, J.Panevova ² ; Rus tilshunoslari S.D.Katsnelson, V.V.Burlakova, N.N.Stepanova, M.D.Stepanova, G.Xelbig V.Yu.Rozensveyg,

² Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. Перевод с фран. – Москва: Наука, 2007. – 670 с.; Erben J. Abriss der Deutschen Grammatik. 9. Unverändert. Auf 1. – Berlin, 1966. – 316 S.; Зандау Г., Зоммерфельдт К.Е. Семантические условия факультативности реализации валентности // Иност. яз. в шк., 1972. – № 2 – С. 21-27; Бондцио В. Теория валентности и обучение языку // ИЯШ,1977. – С.15-21; Лонгакр Р. Природа грамматической валентности. (перевод на русский язык: филфак МГУ им. М.В. Ломоносова) // Вестник МГУ. Серия 9 (филология) 5/ 1998: Изд.во МГУ, 1998. – С.1-11; Longacre R.E. String Constituent Analysis. Language, 1960. – V36.–№1. – P.163-189; Logaceva E.P. Grundfragen der Valenztheorie (Zu Strategie und Taktik des Deutschen Satzes) // DAF. #2, 1990. – S. 65-71; Johanna G. Ditransitives in British English Dialects. Walter de Gruyter, 2014.-252 p.; Gaeta L. Valency Changes between Inflection and Derivation.Universita di Napoli: “Federico II”, 2007. – P. 45-48; Herbst T., Schüller S. Introduction to Syntactic Analysis: A Valency Approach. – Tübingen: Narr, 2008. – 240 p.; Kolařova V. Valency of Deverbal Nouns in Czech (with a special regard to nouns with a participant in dative). – Praha: Karolinum, 2010. – 165 p.; Allerton D.T. Valency and valency grammar. Encyclopedia of language and linguistics. – Oxford: Pergamon, 1994. – 264 p.; Luraghi S., Sausa E. Verbal Valency and Classes of Verbs in Ancient Greek. University of Pavia, 2010. – 128 p.; Malchukov A., Comrie B. (eds) Valency Patterns in the Language of the World. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2011. – 265 p.; Panevova J. On Valency of Nouns (with regard to their derivation). Zbornik Matice srpske za slavistiku 61, 2002. – P. 29-36.

S.M.Kibardina, A.M. Peshkovskiy, N.I.Filicheva, V.A.Frolova, I.B.Dolinina, M.V.Vlavatskaya, E.V.Razova, V.V.Korablin, E.A.Krasilnikova, Yu.D.Apresyan, B.A.Abramov, E.N.Melnikova, S.M.Pankratova, E.A.Xabibulina, A.Mustayoki³lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz.

O'zbek tilshunoslari ham sintaktik sathda valentlikni aniqlashda verbotcentrizm g'oyasiga tayanadi. Jumladan, N.Q.Turniyozov, I.K.Qo'chqorto'ev, R.Rasulov, M.M.Mirtojiyev, A.Nurmonov, S.H.Muxamedova, N.P.Bilimovich, A.A.Abduazizov, D.T.Hojieva, Sh.A.G'anieva, R.M.Asadov, M.K.Abuzalova⁴lar valentlikni leksik va sintaktik sath doirasida tadqiq qilgan. Ushbu ishlarning aksariyatida fe'lning faqat leksik ma'nosiga tayanilgan, fe'lning gap qurilmasi

³ Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности // Вопросы языкознания, 1987. – №3. – С. 20-32; Буракова В.В. Основы структуры словосочетания в современном английском языке. – Ленинград: ЛГУ, 1975. – 216 с.; Степанова Н.Н. Особенности глагольной валентности южногессенского (Самарского) островного говора на Алтае в сравнении с современным литературным немецким языком: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 2002. – 24 с.; Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. – Москва: Высшая школа, 1978. – 215 с.; Розенцвейг В.Ю. Семантическая валентность слова, словообразование, синтаксис // Слово в грамматике и словаре. – Москва: Наука, 1984. – С.101-106; Кибардина С.М. Валентность немецкого глагола: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1988. – 34 с.; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – Изд. 10-е. – М.: УРСС, 2013. – 434 с.; Филичева Н.И. Глаголы с комплексной валентностью и особенности их функционирования в речи // Вопросы лингвистики и методики преподавания иностранных языков. Вып. 1: Изд-во МГУ, 1968. – С. 135-144; Фролова В.А. Фаунонимические глаголы современного немецкого языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Н.Новгород, 2003. – 233 с.; Долинина И.Б. Маркировка субъектно-объектных отношений и валентных категорий английского глагола // Категория субъекта и объекта в языках различных типов. – Ленинград: Наука, 1982. – С. 65-100; Влавацкая М.В. Валентность как потенциал языковой синтагматики: лексикографический аспект // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2012. – №1 (12). – С. 46-51; Разова Е.В. Семантика и валентность глаголов разрушения в современном немецком языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Вологда, 2003. – 25 с.; Кораблин В.В. Валентность имён прилагательных немецкого языка в стилистическом аспекте. – Киев: КГУ, 1981. – 35 с.; Красильникова Е.А. Глаголы власти в современном немецком языке: семантика и валентностные свойства: Дисс. ... канд. филол. наук. – Вологда, 2007. – 238 с.; Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. Перевод на польский язык второго дополненного издания. Wrocław – Warszawa – Kraków: Ossolineum, 2000. – 216 с.; Абрамов Б.А. Немецкий глагол (время, наклонение, валентность): Учебное пособие. – Ростов на Дону: изд-во Ростовского ун-та, 1986. – 87 с.; Мельникова Е.Н. Глаголы и глагольные конструкции попытки к совершению действия в современном английском языке: Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2003. – 163 с.; Панкратова С.М. Валентность единиц лексико-фразеологического уровня (на материале немецкого языка). – Ленинград, 1988. – 158 с.; Мустайоки А. Теория функционального синтаксиса: от семантических структур к языковым средствам – М.: Языки слав. культуры: Studiophilologica, 2016. – 512 с.

⁴ Турниёзов Н.К. Ўзбек тили структурал синтаксисига кириш. – Самарканд: СамДУ, 1989. – 76 б.; Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.; Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент, 1989. – 82 б.; Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. – Тошкент, 2007. – Б. 48; Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. – Б. 22-26; Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. док-ри. ... дис.автореф. – Тошкент, 2007. – 40 б.; Билимович Н.П. Лексико-семантическая субъектная валентность бесприставочных глаголов перемещения в современном русском языке (на материале научного стиля) // Функция и семантика лингвистических единиц, сборник научных трудов. – Ташкент: ТашГПИ, 1983. – С.106-108; Абдуазизов А.А. О фонологической валентности // Филологиянинг долзарб муаммолари. – Тошкент, 2008. – С.14-21; Ходжиева Д.Т. Изменение структурно-функциональной характеристики и валентности глагольных словосочетаний в истории английского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 2011. – 27 с.; Ганиева Ш. А. Ўзбек фразеологизмлари структураси (шаклий ва мазмуний моделлаштириш): Ўзбек тили фил. фан. фал. докт. (PhD) дисс. Автореферати. – Фарғона, 2017. – 24 б.; Асадов Р.М. Инглиз тили содда гап қурилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем таҳлили: Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – 180 б.; Абuzalova М. Грамматическая валентность некатегориальных форм // Filologiya masalalari. Azerbaijan milliy Ilmlar Akademiyasi, 2011. – В. 414-418.

tarkibida boshqa sintaktik birliklar bilan birikish imkoniyatlariga e'tibor qaratilgan va shu asosda tadqiq etilgan.

Yu.D.Apresyan, L.D.Chesnyakova, K.E.Zommerfeldt, Yu.G.Testelets, S.M.Kibardina kabi tilshunos olimlar valentlikni sintaktik sathda ikki turga ajratadi: obligator (majburiy) va fakultativ (ixtiyoriy)⁵. Keltirilgan adabiyotlarda hal etilishi lozim bo'lgan masalani o'rganishda asosan gapda kesim vazifasida kelgan fe'lning leksik-semantik jihatiga tayanib ish ko'rilganligiga guvoh bo'ldik. Lekin fe'l har doim ham gapning asosi bo'lavermasligi ta'kidlangan.

Gapni komponentlar va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish jarayonining sintaktik sath miqyosidagi tahlilini A.M. Muxin, L.I. Yurevich, O'U.Usmonov, Z.J.Muxtorov, R.E.Kiyamov, Sh.S.Ashurov, D.T.Kubeysinova, V.B.Aristova, M.R. Jolibekova, M.S.Qayumova, M.M.Oblokulovalarning ilmiy tadqiqotlariga tayangan holda amalga oshirib, R.Asadov o'z tadqiqotida sintaktik valentlikni quyidagicha aniqlaydi: sodda gap tarkibida fe'lning qanday shakli bo'lishidan qat'iy nazar bir sintaktik aloqa asosida ishtirok etgan sintaktik birlik (bunda so'z turkumining ahamiyati yo'q) – bir valentli komponent, ikki sintaktik aloqa asosida ishtirok etgan sintaktik birlik – ikki valentli komponent, uch sintaktik aloqa asosida ishtirok etgan sintaktik birlik – uch valentli komponent hisoblanadi ⁶. Tilshunoslikda sintaktik tahlil bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, masalaga yondashuvlar nuqtai nazaridan bizning ishimiz mavjud tadqiqotlardan farq qiladi. Ushbu tadqiqotda gap qurilmasida sintaktik birliklarning differensial sintaktik hamda sintaktik-semantik belgilarini va muayyan sintaktik aloqalar asosida boshqa sintaksemalar bilan birikish imkoniyatlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan. Sintaktik tahlildagi an'anaviy gap bo'laklariga ajratib tahlil qilish o'zini to'liq oqlamayotganligi sababli mazkur tadqiqot ishida sintaktik tahlilning yangicha usullaridan, ya'ni komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish metodidan foydalanildi. Komponentlarga ajratib tahlil qilishda elementlar valentligi gaplarning tashqi qurilmasini tashkil qiladi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda esa valentli elementlar gaplarning ichki qurilmasini qamrab oladi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, til tizimining murakkab hodisalaridan biri bo'lgan valentlik kategoriyasining tabiati, uning funksional-kommunikativ xususiyatlari har ikkala qardosh bo'lmagan til misolida to'liq tavsiflanmaganligining guvohi bo'lamiz. Mazkur tadqiqot sintaktik valentlikning sintaktik sathda voqelanishiga bag'ishlangan bo'lib, unda monovalentli komponentlarning gap tarkibidagi sintaktik o'rni, sintaktik belgilarining sintagmatik tabiati va ular vositasida ifodalangan sintaksemalar paradigmaticasi qiyosiy-chog'ishtirma jihatdan komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish orqali o'rganiladi.

⁵ Чеснякова Л.Д. О факультативности и обязательности компонентов современного русского литературного языка. – Ростов-на-Дону: Ростов. ун-т, 1973. – С. 106-115; Зоммерфельдт К.Е. К вопросу о минимуме предложения (валентность и ситуативная завершённость) // Иностран. яз. в шк., 1975. – С. 10-19; Тестелец Ю.Г. Введение в общий синтаксис. – Москва: Русский Государственный университет гуманитарных наук, 2001. – 798 с.; <https://search.rsl.ru/ru/record/01007679371>(12.09.2025)

⁶ Асадов Р.М. Инглиз тили содда гап қурилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем таҳлили: Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 12.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutida olib borilayotgan "Gapning tashqi va ichki qurilmasi muammolari va ularning qiyosiy tipologiyada tutgan o'rni" mavzusidagi innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillari gap qurilmalarida ishtirok etayotgan monovalentli komponentlarning sintaktik maqomini aniqlash va ularni tillararo chog'ishtirma tahlil qilish hamda ular ifodalagan sintaksemalarni tasniflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sintaktik valentlikni aniqlashda sintaktik aloqalar rolini ochib berish va gap tarkibidagi monovalentli komponentlarning maqomini yunksion modellar asosida belgilash;

ingliz va o'zbek tillarida monovalentli komponentlarning gap qurilmasidagi distributsiyasini tavsiflash va ularni o'zaro qiyoslash;

ingliz va o'zbek tillarida monovalentli unsurlar ishtirok etgan gaplarning komponent tarkibini va ularning morfologik xususiyatini komponent modellar vositasida izohlash;

ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida monovalentli komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini sintaksem tahlil asosida aniqlash va ushbu sintaksemalarning boshqa sintaktik birliklar bilan birikish imkoniyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o'zbek tillari gap tarkibida ishtirok etgan monovalentli birliklarning sintaktik-semantik maydoni tanlangan.

Tadqiqotning predmeti ingliz va o'zbek tillarida monovalentli sintaktik birliklar ishtirok etgan gaplarni komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Sodda gap tarkibida kelgan monovalentli komponentlarni tadqiq qilishda distributiv, transformatsiya metodlari hamda komponentlar va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, shuningdek, qiyosiy-chog'ishtirma tavsif metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

sintaktik valentlik hodisasining ko'lami gap yunksion modellari asosida mavjud sintaktik aloqalar miqdoriga ko'ra aniqlanib, gap tarkibidagi monovalentli komponentlarning sintaktik maqomi va distributsiya xususiyatlari tillararo paradigmatic va sintagmatic izomorflik belgisiga egaligi ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillari sodda gap tarkibida monovalentli sintaktik birliklarning analitik va aglyutinativ tillarga xos morfologik xususiyatlari va gapda ishtirok etayotgan qo'shni komponentlar bilan aloqasi gap sirtqi strukturasi aks ettiruvchi yunksion va komponent modellar asosida tavsiflanishi mumkinligi isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillari sodda gaplar tarkibidagi monovalentli unsurlarning differensial sintaktik-semantik, kategorial va nokategorial belgilari aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida monovalentli sintaktik birliklarning semantik-funksional tahlili orqali ajratilgan sintaksemalarning katta qismini

protsessual sintaksemalar tashkil qilishi hamda ularning sintaktik variantlashuvning namunasi sifatida alohida tadqiqot obyekti bo'lishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

filologiya fakulteti yuqori kurs talabalari hamda magistrantlari uchun ingliz va o'zbek tilini o'qitish amaliyotidagi nazariy grammatikaning dolzarb muammolar, funksional sintaksis va qiyosiy tipologiya bo'yicha maxsus kurslarda gapning ichki va tashqi qurilmalarini, sintaktik birliklar tipologiyasini o'rganish tizimi ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillari sodda gap tarkibida monovalentli sintaktik birliklarning o'zaro munosabati va ular ifodalagan sintaksemalarni ko'rgazmali tarzda o'rganish uchun gaplarning yunksion, komponent va sintaksem modellari taqdim etilgan, shuningdek, ishda ochib berilgan sintaksemalar kompyuter lingvistikasida avtomat tarjima uchun asos bo'lishi mumkinligi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning tasniflanishi, aniq lingvistik metodlar orqali tahlil qilishga asoslanganligi, ishonchli nazariy manbalar hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, aniq badiiy asarlardan misollar yig'ilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalarning o'zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati valentlik nazariyasining til sathlarida namoyon bo'lish xususiyatlariga aniqlik kiritilib, sintaktik sathda til birliklarining valentligini belgilashda sintaktik aloqalarning roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berish hamda gaplardagi sintaktik aloqalari yunksion modellar va komponentlarning differensial sintaktik belgilari va ifodalanish usullari komponent modellar yordamida yoritilishi orqali gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarning semantikasi funksional sintaksis nuqtai nazaridan ochib berilishida namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillari sodda gap tahliliga bu yo'sinda yondashish qiyosiy tipologiya va nazariy grammatikalarda uchraydigan ayrim bahsli muammolarning yechimini topishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lingvistik metodlar asosida chog'ishtirma tahlil qilishda bakalavriat talabalariga "Nazariy va amaliy grammatika", "Qiyosiy tilshunoslik", "Qiyosiy grammatika", magistrantlarga "Nazariy grammatikaning dolzarb muammolari", "Lingvistik metodlar", "Tarjima nazariyasi" "Qiyosiy tipologiya", "Sintaktik-semantika" kabi fanlardan maxsus kurs va seminar mashg'ulotlarida hamda mazkur sohalar bo'yicha o'quv, uslubiy qo'llanmalar, darsliklar yaratish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sodda gap tarkibida monovalentli komponentlarni lingvistik metodlar asosida ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy-funksional tadqiq etish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o'zbek tillarida sintaktik valentlik hodisasining ko'lami gap yunksion modellari asosida mavjud sintaktik aloqalar miqdoriga ko'ra aniqlanib, gap tarkibidagi monovalentli komponentlarning sintaktik maqomi va distributsiya

xususiyatlari tillararo paradigmatik va sintagmatik izomorflik belgisiga egaligiga oid tahlil natijalaridan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshirilgan 585845-EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida kompyuter lingvistikasida tatbiq etiladigan avtomat tarjima dasturlarida adekvat tarjimaga erishish, yozma matnni muvofiqlashtirish va idrok qilish algoritmini yaratishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 18-maydagi №1036/02-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalarini joriy qilish mazkur loyiha doirasida yaratilgan o’quv qo’llanmalarini shakllantirish va ta’lim jarayonini tashkil etishga xizmat qildi;

ingliz va o’zbek tillari sodda gap tarkibida monovalentli sintaktik birliklarning analitik va aglyutinativ tillarga xos morfologik xususiyatlari va gapda ishtirok etayotgan qo’shni komponentlar bilan aloqasi gap sirtqi strukturasi aks ettiruvchi yunksion va komponent modellar asosida tadqiq etishda erishilgan natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o’quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 18-maydagi 1034/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur loyiha doirasida o’qituvchilar kasbiy mahoratini oshirish, ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo’llanmalar va o’quv dasturlarini takomillashtirishga erishilgan;

ingliz va o’zbek tillari sodda gaplar tarkibidagi monovalentli unsurlarning differensial sintaktik-semantik, kategorial va nokategorial belgilarining xususiyatlari bo’yicha taklif va tavsiyalardan O’zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati teleradiokompaniyasida 2024-yil yanvar-fevral oylari davomida e’fira uzatilgan “Assalom Samarqand”, “Sifatli ta’lim taraqqiyot poydevori”, “Uchqun” ko’rsatuvlarining ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (Samarqand viloyat Teleradiokompaniyasining 2024-yil 29-maydagi 01-07/125-son ma’lumotnomasi). Natijada, rasmiy va norasmiy matnlarni ingliz va o’zbek tillarida ifoda qilishda to’liq muqobilikka erishishga imkoniyat tug’ildi;

ingliz va o’zbek tillari gap qurilmasida monovalentli sintaktik birliklarning semantik-funksional tahlili orqali ajratilgan sintaksemalarning katta qismini protsessual sintaksemalar tashkil qilishi hamda ularning sintaktik variantlashuvning namunasi sifatida alohida tadqiqot obyekti bo’lishi mumkinligi haqidagi natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo’yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 4-yanvardagi 10/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan tavsiyalar

mazkur xalqaro loyihani amalga izchil oshirishda va uning bevosita amaliyotda qo'llanilishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarda 6 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ishda foydalanilgan qisqartmalar izohidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Struktur sintaksisda valentlik hodisasini belgilash mezonlari”** deb nomlanib, struktur tilshunoslikda valentlik hodisasining talqini hamda valentlikni aniqlashda sintaktik aloqalarning roli masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, monovalentli bo'laklarning gap tarkibidagi distributsiyasi bayon etilgan.

Aloqa vositasi hisoblangan tilni ona tili yoki xorijiy til sifatida o'rganar ekanmiz, fikrimizni tushunarli bayon qilish uchun jumalarni to'g'ri tuza olishimiz, so'zlarni bir-biriga mantiqan ketma-ketlik asosida bog'lay olishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda til birliklarining o'zaro bog'lanish hodisasi valentlik tushunchasi tamoyillariga asoslanadi. Lingvistik valentlikning til sathlarida voqelanishiga ko'ra fonetik, leksik, morfologik, semantik va sintaktik valentlik turlari farqlanadi.

Valentlik nazariyasi jahon tilshunosligida yigirmanchi asr o'rtalarida paydo bo'lgan deyilsa-da, ammo ba'zi oldingi manbalarda so'zlarning valentlik asosida birikishi xususida fikrlar uchraydi. Jumladan, A.V.Dobiash o'zining “Apolloniya Diskol sintaksisi”⁷ asaridagi qarashlari bilan verbosentrik va valentlik nazariyasining shakllanishiga asos solgan. S.X.Muxammedova qayd etishicha, o'tgan asrdayoq boshqa bir qator tilshunoslar A.B.Dobiashga hamfikir bo'lganlar⁸.

⁷ Добиаш А.Б. Синтаксис Аполлония Дискалола. – Киев: Типография К.Н.Милевского. – 1882. – 152 с.

⁸ Muxamedova S. Valentlik nazariyasining Evropa va o'zbek tilshunosligidagi rivoji. – Toshkent: Universitet. – 2000. – 12 b.

Jumladan, nemis tilshunoslari I.V.Mayner, Y.H.Hayze, O.Behagellar⁹ asarlarida shunga yaqin qarashlar kuzatiladi. O‘zbek tilshunosligida valentlik haqida olib borilgan tadqiqotlardan birida M.Qurbonova “Fitrat kesimdan anglashilgan o‘yni to‘ldirmoq uchun unga ayrim so‘z qo‘shiladi,” deganida ham valentlikka xos qarashni ilgari surgan¹⁰, degan fikrni aytadi. Valentlik termini lotin tilidan olingan bo‘lib, *valeo, lui, litum, ere* – sog‘lom, ma‘noli, haqiqiy, kuchga ega bo‘lish¹¹ ma‘nolarini anglatadi. Xususan, tilshunoslikda bu termin qo‘llanishida so‘zning birika olish imkoniyati nazarda tutilgan.

Jahon tilshunosligida valentlik termini XX asr o‘rtalarida Yevropada L.Tenier, Rossiyada S.D.Katsnelson tomonidan rasman iste‘molga kiritilgan, deb hisoblanadi. S.D.Katsnelson “So‘zning gap qurilmasida ishtirok etish jarayonida boshqa so‘zlar bilan ma‘lum kombinatsiya asosida birikishi valentlik deb ataladi”¹², deb valentlik hodisasini ta‘riflaydi.

L.Tenierning fe‘l valentlik nazariyasini ishlab chiqishi gap qurilmasi haqidagi verbotsentriзм konsepsiyasining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Biroq sintaktik valentlik tushunchasiga tilshunoslar turlicha ta‘rif berishadi. Xususan, L.Tenier “... valentlik so‘zlarning o‘zaro birikish mohiyati” ekanligini ta‘kidlasa¹³, V.V.Burlakova va T.I.Kotinalar¹⁴ ikki xil valentlik haqida tadqiqot olib borib, biri so‘zlarning morfemalar vositasida birikish usullari, ikkinchisi o‘timli fe‘llar asosida ikki valentlilikni aniqlash haqida fikr yuritadi.

K.E.Zommerfeldt nemis tili fe‘l valentligi haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi “...gap qurilmasini aniqlashda tuslanadigan fe‘lning gapdagi o‘rnidan, gapning struktur turlarida fe‘lning o‘rnidan kelib chiqib, ular quyidagilarga ajratiladi: gapning boshidan o‘rin olgan fe‘lli gaplar (Stirnsatz); ikkinchi o‘rinda kelgan fe‘lli gaplar (Kernsatz); gapning oxiridan o‘rin olgan fe‘lli gaplar (Spannsatz). Demak, gap tarkibiy qismining asosiy markazi tuslanayotgan fe‘l hisoblanar ekan, valentlikni undan izlash kerak”¹⁵. Olim, shuningdek, valentlikni leksik sathda tahlil qilishda leksik-semantik va grammatik maydonni farqlaydi. Bundan tashqari, u fe‘ldan yasalgan otlarning valentligi haqida izlanish olib boradi¹⁶.

⁹ Meiner J.W. Versuch einer an der menschlichen Sprache abgebildeten Vernunftlehre philosophie und allgemeine Sprachlehre. – Leipzig. – 1871.- S. 132; Heyse J.Ch. Deutsche Grammatik – Hannover Leipzig. – 1908. – S. 296. Behagel O. Deutsch Syntax. Bd.II. – Heidelberg. – 1924. – S. 113.

¹⁰ Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. – Toshkent: Universitet. – 1996. – B. 12.

¹¹ Нисенбаум М.Е. Латинский язык. Издание второе, переработанное и дополненное. – М.: Проспект, 2000. – 595 с.

¹² Кацнельсон С.Д. О грамматической категории // Вестник ЛГУ, 1948.– №2. – С.132; Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – Москва – Ленинград: Наука, 1965. – С. 84; Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности // Вопросы языкознания, 1987. – №3. – С. 24.

¹³ Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. Перевод с фран. – Москва: Наука, 2007. – С. 98.

¹⁴ Бурлакова В.В. Основы структуры словосочетания в современном английском языке. – Ленинград: ЛГУ, 1975. – С. 81; Котина Т.И. Лексико-грамматическая характеристика двухвалентных глаголов с предложным управлением в современном немецком языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1991. – С. 11-13.

¹⁵ Зоммерфельдт К.Е. К вопросу о минимуме предложения (валентность и ситуативная завершённость) // Иностр. языки в школе, 1975. – С. 10.

¹⁶ Зоммерфельдт К.Е. Семантика и валентность имён существительных – наименований деятеля с суффиксом -ЕК // Иностр. яз. в шк., 1980.– №3.– С.7-10.

Yurtimizda o'tgan asrning 80-yillarida K.B.Shodmonov¹⁷, N.P.Bilimovich¹⁸lar ingliz va rus tillari materialida izlanishlar olib borishgan, ammo bu ishlarda ham leksik valentlikka tayanilgan. O'zbek tilshunosligida valentlik borasida I.Qo'chqortoyev, M.Mirtojiyev, S.X.Muxamedova, N.Mahmudov, A.Nurmonovlar salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Mazkur olimlar ham valentlikni asosan fe'lga bog'lab tadqiq etishgan. Fe'l gapning markazi deya ta'riflanadi, o'zbek tilida fe'l bir taraflama valentlikka ega, ya'ni faqat old valentligi bor, fe'l valentligi talab etgan so'zlar uning oldidan keladi¹⁹ deb e'tirof etiladi. Chunki o'zbek tilida kesimning o'rni gapning oxirida bo'lib u asosan fe'l bilan ifodalanadi. Lekin fe'l funksional shakllarini olsa, u ikki taraflama valentlik kasb etadi, masalan, *o'qigan* sifatdoshi ham old, ya'ni "kitobni o'qigan" va ham orqa, ya'ni "o'qigan bola" valentliklariga ega.

Sh.A.G'anieva valentlikni frazeologik birliklar doirasida o'rgangan va sintaktik valentlikni frazeologik birliklarning shakliy-semantik nuqtai nazardan ko'rib chiqib, sub'ekt, obyekt, lokativ, temporal, kauzal, holat valentligi kabilarni farqlagan²⁰. Bu ishlarda ham sintaktik valentlik emas, balki semantik valentlik yoritilgan.

D.T.Hojievaning monografik ishida valentlik sathlari quyidagicha sanab o'tiladi, ya'ni logik valentlik – tushuncha va mazmun o'rtasidagi nutqdan tashqari munosabat; semantik valentlik – semantik komponentlarning birga qo'shila olishi va birikishi asosida mavjud bo'ladi; sintaktik valentlik esa komponentlarning o'zaro birikishida obligatorlik va fakultativlikni aniqlashdan iboratdir²¹. Bu ishda ham sintaktik valentlikning mohiyati to'la ochib berilmagan.

M.Qurbonova, R.Sayfullaeva, G.Boqieva, B.Menglievlar²² valentlik turlari haqida quyidagi ta'riflarni beradi. Leksemalar birikishi lozim bo'lgan leksemani nafaqat ma'no jihatdan, balki uning ma'lum bir grammatik shaklda bo'lishini ham talab etadi. Shunga ko'ra, valentlik lug'aviy va sintaktik qatlamlarga ajraladi. Lug'aviy va sintaktik valentliklar o'zaro bog'lik bo'lsa-da, ular tez-tez o'zgarishga uchrab turadi. Masalan, *Ashulachi hangradi* birikuvida sintaktik valentlik o'zgarishdan voqelangan, ammo lug'aviy valentlik yangilangan holda yuzaga chiqqan.

¹⁷ Шодмонов К.Б. К вопросу о словообразовательной валентности латинизмов в английском языке эпохи позднего возрождения (на материале существительных) // Иностранные языки в педагогических вузах Узбекистана. – Ташкент: ТашГПИ, 1981. – С. 89-90.

¹⁸ Билимович Н.П. Лексико-семантическая субъектная валентность бесприставочных глаголов перемещения в современном русском языке (на материале научного стиля) // Функция и семантика лингвистических единиц. – Ташкент: ТашГПИ, 1983. – С. 106-108.

¹⁹ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.; Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. – Тошкент, 2007. – Б. 48.; Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари. Филол. фан. док-ри. дис.автореф. – Тошкент, 2007. – 40 б.; Махмудов Н, Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент, 1995. – 149 б.

²⁰ Ганиева Ш.А. Темпоральная валентность фразеологизмов узбекского языка // Ученый XXI века. – Йошкар-Ола, 2016. – № 3-4. – С.19-21; Ганиева Ш.А. Фразеологизмларнинг ҳолат валентлиги хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2016. – №1. – Б.103-106.

²¹ Ходжиева Д.Т. Изменение структурно-функциональной характеристики и валентности глагольных словосочетаний в истории английского языка. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Самарканд, 2011. – С. 11.

²² Qurbonova M., Sayfullaeva R., Boqieva G., Mengliev B. O'zbek tilining struktural sintaksisi. O'quv qo'llanmasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2003. – 142 b.

Tilshunoslikda sintaktik aloqa va sintaktik munosabat masalasi bahstlab muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu masala yuzasidan har xil fikrlar tug'ilishiga asosiy sabab til sathlarini bir-biridan, ya'ni leksik sathni so'z birikmalar sathidan, morfologik sathni sintaktik sathdan farqlamaslik oqibatidir.

Valentlik tushunchasi so'z birikmalari tushunchasi bilan uzviy bog'liq hodisa hisoblanadi, shunday ekan avvalo so'z birikmalari, ularning o'zaro bog'lanish tamoyillari haqida to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. So'z birikmasini ayrim tilshunoslar til birligi sifatida tan olishadi²³, biroq ko'pchilik tilshunoslar so'z birikmasining til birligi, gap uchun qurilish materiali ekanligini inkor etadilar. Xususan, Yu.F.Fomenkning quyidagi fikri bu hodisani isbotlash uchun asos bo'la oladi. Uning dalillashicha, birinchidan, so'z birikmasi na kommunikativ, na nominativ vazifa bajarmaydi, zero, kommunikativ vazifa gaplar vositasida, nominativ vazifa so'zlar yordamida voqelanadi. Ikkinchidan, so'z birikmasi alohida bir tushunchani emas, balki tushunchalar qo'shilmasini aks ettiradi. Uchinchidan, so'z birikmasi tayyor til materiali emas, balki u nutq jarayonida yasaladi. Shuningdek, tilning har bir sathi uchun bir til birligi xos: fonologik sath uchun – fonema, leksik sath uchun – leksema bo'lgani kabi so'z birikmasi sintaktik sathda til birligi, deb tan olinsa, boshqa sathlarda ham fonema birikmasi, morfema birikmasi kabi birliklarni til birligi deb tan olish kerak bo'ladi. Ana shu asoslarga ko'ra, u so'z birikmasi tilning alohida birligi emas, balki til valentligining nutqiy voqelanishi, degan xulosaga keladi²⁴. Haqiqatan, so'z birikmalari nutqda, ya'ni muloqot jarayonida vujudga keladi, suhbatdoshimizning fikriga yoki muayyan vaziyatga nisbatan munosabat bildirish uchun o'sha holatga mos keladigan jumla tuzish uchun so'zlarni bir-biriga bog'laymiz. Demak, so'z birikmasi tilda tayyor holda mavjud emas, degan fikr bizningcha ham to'g'ri.

Gap tarkibidagi sintaktik aloqalarni aniqlash borasida ikki xil yondashuv mavjud: formal-morfologik va funksional-sintaktik. Tilshunoslikda bitishuv, boshqaruv va moslashuv kabi sintaktik aloqalar formal-morfologik nuqtai nazardan o'rganilgan. Sintaktik aloqalarni funksional-sintaksis asosida qarash kerak, degan fikrdamiz.

Mazkur tadqiqot ishida gap tarkibida kelgan komponentlarning o'zaro sintaktik aloqalarini tasvirlash yunksion modellar yordamida amalga oshiriladi. Yunksion model termini lotin tilidagi "*junction*" so'zidan olingan bo'lib, o'zbekchada "*bog'lanish*", "*aloqa*" ma'nolarini ifodalaydi²⁵. Bu model gorizontal yo'nalishda tuzilib, gap tarkibidagi komponentlarning real distributsiyasini, bir-biriga bog'liq munosabatlarini ifodalaydi. Dissertatsiyada A.M.Muxin va boshqa tadqiqotchilarning tadqiqotlarida keng qo'llanilgan sintaktik aloqalar mazmuniga to'xtalib, gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarning o'zaro sintaktik aloqalarini ko'rgazmali ravishda yunksion modellar yordamida tasvirlaymiz, ya'ni

²³ Малащенко В., Богачев Ю.П. Словосочетание и члены предложения // Вопросы языкознания, 1982 – № 6.

²⁴ Фоменко К.В. Является ли словосочетание единицей языка // Филологические науки, 1975 – №6.

²⁵ Мухин А.М. Модели внутренних синтаксических связей предложений // Вопросы языкознания. – Москва: 1970. – №4. – С.68-69.

ularда yadro predikativ, subordinativ, koordinativ, nolga teng predikativ, introduktiv, noyadroviy predikativ, appozitiv aloqalar aniqlanadi²⁶.

Dissertatsiyaning **“Sodda gap tarkibida bir valentli elementlarning komponent tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida gap qurilmasi tarkibida turli o‘rinlarda kelgan bir valentli birliklarning sintaktik xususiyatlari o‘rganilgan. Bir valentli komponentlar yadro predikativ, noyadroviy predikativ va tobe birliklar o‘rnida kelishi aniqlangan hamda ularning sintaktik aloqalari yunksion modellarda namoyon etilgan, komponent modellar vositasida bir valentli birliklar qatnashgan gaplarning sintaktik tarkibi va morfologik xususiyatlari ochib berilgan.

Sintaktik sathda komponentlarning valentligini aniqlashda gap tarkibida ishtirok etgan birliklarning sintaktik aloqalari soni hisobga olinadi. Ma’lumki, sintaktik birliklar bir sintaktik aloqa asosida gap tarkibida ishtirok etsa, bir valentli yoki monovalentli komponent hisoblanadi. Badiiy adabiyotlardan to‘plangan misollar tahliliga asoslanib, bir valentli komponentlar gap qurilmasida yadro komponentlar (NP₁, NP₂), noyadroviy tobe (ND) komponent, noyadroviy predikativ 2 komponent o‘rinlarida kelishini kuzatish mumkin.

Gapning asosi, ya’ni yadrosi hisoblangan bo‘laklar yadro komponentlar deyiladi²⁷, bu an’anaviy grammatikalarda gapning bosh bo‘laklari²⁸ termini bilan yuritiladi. Yadro komponentlar ikkita bo‘lganligi uchun ularning gapdagi joylashish tartibiga asoslanib yadro predikativ 1 (ega – Subject) va yadro predikativ 2 (kesim – Predicate)²⁹ komponentlari farqlanadi.

Yadro predikativ 1 komponenti ingliz va o‘zbek tillarida ko‘plab o‘xshash xususiyatlarga ega, jumladan, ular gap boshida joylashadi va deyarli barcha so‘z turkumlari bilan ifodalana oladi. Ularning farqi asosan kesim bilan shaxs va sonda moslashishida kuzatiladi. Ma’lumki, ingliz tili analitik til bo‘lib, grammatik kategoriyalar yordamchi so‘zlar vositasida shakllanadi. O‘zbek tili esa agglyutinativ til hisoblanib, grammatik qo‘shimchalar muhim vazifa bajaradi. Shuningdek, o‘zbek tilida ega vazifasidagi olmoshlar juda ko‘p holatlarda tushib

²⁶ Антипина Н.А. Составные синтаксические элементы «модальный глагол+инфинитив» и модальные конструкции в структуре предложений современного английского языка. Автореф. дисс.канд. филол. наук. – Ленинград, 1974. – 20 с.; Аристова Е.Б. Субстантивные варианты агентивной синтаксемы // Лингвистические исследования. Синтаксический анализ разносистемных языков. – Москва: РАН, 1979. – С. 8-13; Воскресенская Н.Е. Предложение с ядерным дважды предцируемым компонентом в современном английском языке// Сборник материалов международной конференции, посвященной проф. В.А.Дорошенкоу и памяти проф. А.М.Мухина «Когнитивно-дискурсивные исследования языка и лингвистический анализ» - Краснодар, 17 мая 2012г. – Краснодар: КГИК, 2012. – С.227-230; Жоллыбекова М.Р. Типология неполных предложений диалогической речи в разносистемных языках (на материале английского и каракалпакского языков). Дисс... канд. филол. наук. – Нукус, 2008. – 156 с.; Кубейсинова Д.Т. Синтаксико-семантические особенности личных местоимений в структуре предложений современного английского языка. Дисс... канд. филол. наук. – Нукус, 2008. – 151 с.; Усмонов У.У. Методическая рекомендация по теории синтаксического анализа нулевых элементов в структуре неполных предложений в английской диалогической речи. – Самарканд: СамГПИ, 1990. – 90 с.

²⁷ Мухин А.М. Структура предложений и их модели. – Ленинград: Наука, 1968. – С. 98.

²⁸ Mirtojiev M. Gap bo‘laklaida semantik sintaktik nomutanosiblik – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 20 b.; Каушанская В.Л. Грамматика английского языка. 5-й изд., испр. и доп. – М.: Айрис Пресс, 2008. – С. 150-151.

²⁹ Мухин А. М. Функциональный синтаксис. – СПб.: Наука, 1999. – С. 106.; Усмонов Ў.У. Гап таҳлилига янгича ёндашув // Халқаро илмий-назарий анжуман. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2004. – Б. 105-108.

qolishi mumkin³⁰, chunki kesim tarkibidagi shaxs-son qo‘shimchasi egani aks ettira oladi.

Bir valentli yadro predikativ 1 faqat yadro predikativ aloqa vositasida gap tarkibida ishtirok etadi va yadro predikativ 2 (kesim) vazifasidagi sintaktik birlik bilan bog‘lanadi.

Quyidagi misollar tahlilida fikrimizni dalillashga harakat qilamiz:

1. *The ditch of water was a notorious ship-swallower ... (RRHC, 19). → The ditch ... was a ... ship-swallower.*


1) <i>The ditch ... was a ... ship-swallower.</i>	
$\begin{array}{c} 1 \quad 2 \\ \underline{\tilde{N}D} \cdot \underline{NP_2} \\ S \quad cS \end{array}$	
K.M.	I.O.M.

2. *The Prime Minister stopped in his tracks as though he had hit an invisible wall (JRHP, 8). → The Prime Minister stopped... .*

2) <i>The Prime Minister stopped... .</i>	
$\begin{array}{c} 1 \quad 2 \\ \underline{\tilde{N}D} \cdot \underline{NP_2} \\ S \quad Vf \end{array}$	
K.M.	I.O.M.

Keltirilgan misollarda yadro predikativ 1 komponentlari aniq otlar bilan ifodalangan. Ushbu gaplarda tushirib qoldirish transformatsiyasi usulidan foydalanib asosiy elementlar bo‘lgan yadro komponentlarni saqlagan holda tobe komponentlarni tushirib qoldirdik va hosila gaplarni komponent hamda yunksion modellar asosida tahlil qildik. Birinchi gapda bir valentli sintaktik birlik *The ditch* – joy nomi bo‘lgan turdosh ot bilan ifodalangan va yadro predikativ 2 komponent o‘rnidagi *ship-swallower* – qo‘shma ot bilan yadro predikativ aloqa asosida bog‘langan. Ikkinchi gap ham xuddi shunday transformatsiya qilindi hamda modellar asosida birliklarning sintaktik aloqalari va morfologik xususiyatlari ko‘rgazmali ravishda ifodalandi. Bunga ko‘ra yadro predikativ 1 komponenti *The Prime Minister* – atoqli ot bilan ifodalangan bo‘lib, *stopped* – o‘timsiz fe‘l bilan sintaktik munosabatga kirishgan.

3. *An alarm clock was repaired by Harry several years ago (JRHP, 28). → 3a) An alarm clock was repaired by Harry ... → 3b) Harry repaired an alarm clock.*

3a) <i>An alarm clock was repaired by Harry</i>	
$\begin{array}{c} 1 \quad 2 \quad 3 \\ \underline{NP_2} \cdot \underline{NP_1} \cdot \underline{\tilde{N}D} \\ S \quad auxVp_2 \quad prS \end{array}$	
K.M.	I.O.M.
3b) <i>Harry repaired an alarm clock</i>	$\begin{array}{c} 1 \quad 2 \quad 3 \\ \underline{NP_1} \cdot \underline{NP_2} \cdot \underline{\tilde{N}D} \\ S \quad Vf \quad S \end{array}$
	K.M.

³⁰ Махмудов Н, Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 149 б.

Uchinchi gap tarkibida yadro predikativ 1 vazifasida kelgan sintaktik birlik *an alarm clock* qo'shma ot bo'lib, majhul nisbatdagi *was repaired* o'timli fe'l bilan sintaktik aloqa asosida bog'langan. Mazkur gapdagi *An alarm clock* harakatning obyekti, tobe komponent *by Harry* esa harakatning bajaruvchisi hisoblanadi. Bu holat transformatsiya-depassivizatsiya usuli yordamida o'z isbotini topadi. Berilgan (3a) va hosila (3b) gaplarning yunksion modeli bir xil bo'lsa-da, ularning morfologik xususiyatlari bir biridan farq qiladi. Harakatning bajaruvchisi yadro predikativ 1 o'rnida kelganda hech qanday predloglarsiz ishlatiladi, tobe komponent o'rnida kelgan holatda *by* predlogi vositasida faollashadi.

Yadro predikativ 1 komponenti, shuningdek, kishilik va gumon olmoshlari bilan ham ifodalanishi mumkin, bunda ular yadro predikativ 2 komponenti vazifasidagi fe'l bilan shaxs va sonda moslashadi.

4. *You were so good to us (RRHC, 21).*

4) <i>You were so good to us</i>				
1	2	3	4	K.M.
\underline{NP}_1	$\cdot \tilde{ND}$	$\cdot \underline{NP}_2$	$\cdot \tilde{ND}$;	
Pnp	Adv	cA	prPnp	I.O.M.

5. *The little ones ... buried their faces in her lap (RRHC, 33).* → 5) *The little ones ... buried faces ... (RRHC, 33).*

5) <i>The little ones ... buried faces</i>				
1	2	3	4	K.M.
\tilde{ND}	$\cdot \underline{NP}_1$	$\cdot \underline{NP}_2$	$\cdot \tilde{ND}$	
A	Pnind	Vf	S	I.O.M.

Tahlil qilinayotgan to'rtinchi gap tarkibida *you* kishilik olmoshi *to be* yordamchi fe'lining o'tgan zamon ko'plik shakli *were* vositasida *good* sifatiga bog'lanib kelgan. Ma'lumki, ingliz tilida *you*³¹ bitta shaxsni ifodalasa ham, bir nechta shaxsni ifodalasa ham ko'plik sondagi fe'l bilan bog'lanadi.

Inglizcha gaplar tarkibida yadro predikativ 1 komponent o'rnida kelgan sintaktik birliklar aniq yoki mavhum otlar, olmoshlar, otlashgan sifatlar, fe'lining infinitiv va gerundiy shakllari bilan ifodalanadi. Otlashgan sifat aniq artikl bilan, mavhum otlar qaratqich aniqlovchi bilan kelishi to'plangan misollarda ko'p uchradi.

O'zbek tilida misollarni to'plash jarayonida o'zbek adiblarining asarlari bilan bir qatorda tarjima qilingan asarlarga ham murojaat qildik.

1. *Aravakash qo'lidagi kurak bilan ko'mirlarni tushirar (QA, 34).*

2. *Qamoqxona ular uchun yomon joy emas (QA, 77).*

3. *So'zlaridan samimiyat ufuradi (QA, 85).*

Keltirilgan gaplarda yadro predikativ 1 komponentlar turdosh ot – *Aravakash* (1), joy nomi – *Qamoqxona* (2), mavhum otlar – *samimiyat* (3) bilan ifodalangan

³¹ Salim N. An Introduction to English Grammar Syntax. Al Malhal publishing house. 2008. – 394 p.; Roberts P. English Syntax. – New York, 1964. – 414 p.; Kuldashv A.M., Iriskulov M.T. Theoretical Grammar of English. – Tashkent, 2019. – 214 p.

bo‘lib, harakat fe‘li – (1), inkor shakldagi ot-kesim – (2) hamda holat ma‘nosida faollashgan harakat fe‘llari – (3) bilan yadro predikativ aloqa asosida bog‘langanligini quyidagi yunksion modellar vositasida ko‘rgazmali tasvirlash mumkin. Bunda tushirib qoldirish transformatsiyasi yordamida tobe komponentlarni tushirib faqatgina yadro komponentlarni saqlab qolamiz va hosila gaplarning yunksion modelini hamda komponent tarkibi-yu, morfologik xususiyatlarini aks ettiramiz.

1) *Aravakash qo‘lidagi kurak bilan ko‘mirlarni tushirar* → *Aravakash ... tushirar*;

2) *Qamoqxonona ular uchun yomon joy emas* → *Qamoqxonona ... yomon joy emas*;

3) *So‘zlaridan samimiyat ufuradi* → *... samimiyat ufuradi*;

Transformatsiya natijasida hosil bo‘lgan birinchi, uchinchi gaplar bir xil yunksion modelga tushadi, biroq ikkinchi gapda bittadan tobe komponent saqlanmasa, gapning mazmuni tushunarsiz bo‘lib qoladi. Biroq tahlil qilingan gaplar morfologik xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi.

1, 3-gaplar uchun		IO.M.
(1) <i>Aravakash ... tushirar</i> ; (3) <i>samimiyat ufuradi</i> ;	$\frac{NP_1}{S} \cdot \frac{NP_2}{Vf}$	K.M.
2-gap uchun		IO.M.
(2) <i>Qamoqxonona ... yomon joy emas</i> ;	$\frac{NP_1}{S} \cdot \frac{\tilde{N}D}{A} \cdot \frac{NP_2}{cSng}$	K.M.

O‘zbek tilida bir valentli yadro predikativ 1 bo‘lagi o‘rnida juft qismlarni ifodalovchi so‘zlar ham kelishi mumkin. Ma‘lumki, o‘zbek tilida tananing juft a‘zolarini anglatuvchi otlar odatda birlik shaklda bo‘ladi, shuningdek, ularning oldidan hisob so‘zlar, sonlar kelganda ham birlik shaklda qo‘llaniladi. Bunday otlarga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda, ular uslubiy bo‘yoqdorlik kasb etadi³² va ko‘plikdan ko‘ra ko‘proq kuchaytirish ma‘nosini anglatadi.

To‘plangan misollar tahlilidan shunday xulosa qilinadiki, o‘zbek tilida bir valentli yadro predikativ 1 komponenti ot, olmosh, otlashgan sifat, otlashgan sifatdosh, egalik affiksini olgan jamlovchi, sanoq va tartib sonlar, fe‘lning harakat nomi shakllari bilan ifodalanishi mumkin hamda yadro predikativ 2 komponent o‘rnida kelgan harakat va holat fe‘llari, egalik affiksini olgan otlar bilan yadro predikativ aloqa vositasida bog‘lanadi.

Ingliz tilida NP₂ komponenti sodda va yasama fe‘l, modal fe‘lli birikma, ot, sifat, son, olmoshli birikmalar, shuningdek, fe‘l + fe‘l ko‘rinishidagi birikmalar bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunda birinchi fe‘l grammatik ko‘rsatkichlarga

³² Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 56.

ega bo'ladi, ya'ni tuslanadi, ikkinchi fe'l esa infinitiv yoki gerundiy shaklida, biroq asosiy leksik ma'no ikkinchi fe'ldan anglashiladi. Bunday qurilmalar o'zbek tilidagi ko'makchi fe'lli fe'l qo'shilmasiga mos keladi.

O'zbek tilida yadro predikativ 2 komponent o'rnida sodda va yasama fe'l, qo'shma va murakkab fe'l, o'timli va o'timsiz fe'l, harakat va holat fe'li bevosita, shuningdek, ot, sifat, son, olmosh, ravish va kesimlik ko'rsatkichlari hisoblanuvchi bog'lamalar – shaxs-son qo'shimchalari, *edi, ekan* so'zlari yordamida NP₁ komponenti bilan bog'lanib keladi. Bunda NP₂ uyushiq bo'laklardan iborat bo'lmasligi lozim, aks holda u ikki valentli bo'lib qoladi.

Mazkur bobda ingliz va o'zbek tillarida yadro predikativ 2 komponentning ifodalanishini tahlil qilar ekanmiz, ikki til o'rtasidagi farqlarning guvohi bo'ldik. Bu farqlar asosan ularning turli tillar tizimiga oidligidan kelib chiqadi. O'zbek tilida NP₂ o'rnidagi elementlar bir qator kelishik qo'shimchalari, egalik affikslari bilan kelsa, ingliz tilida bu holat kuzatilmadi.

Gap tarkibida noyadroviy predikativ 2 (ÑP₂) komponenti o'rnida kelgan bir valentli bo'laklar noyadroviy aloqa asosida bog'lanadi. O'.U.Usmonovning ta'kidlashicha, "... subordinativ aloqa bir tomonlama hokim komponentga tobelikni ifodalasa, noyadroviy predikativ aloqa esa ikki komponentga ham bir xil yo'naltirilganligi bilan farqlanadi"³³. Yunksion modellarda noyadroviy predikativ aloqa ikki tomonli ko'rsatkichli (↔) bir chiziq bilan beriladi. Ushbu holatni modellashtirish metodi asosida tahlil qilganimizda, noyadroviy predikativ 2 komponenti bilan sintaktik munosabatga kirishuvchi bo'lak, ya'ni noyadroviy tobe predikativ 1 komponenti ikki valentli bo'ladi, chunki uning gap qurilmasida ikki sintaktik aloqa asosida ishtirok etishi ayon bo'ladi.

O'zbek tilida ÑP₂ komponenti qatnashgan gaplar murakkablashgan sodda gaplar deb yuritiladi. Sodda gap tarkibiga turli sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart maylidagi fe'lli o'ram (oborot)larni kiritish natijasida bu gap qurilishi murakkablashishi va bunday o'ramlardagi ikkinchi darajali predikatsiyaga ko'ra gaplar predikativ jamlanishi yuzaga kelishi mumkin³⁴. M.Mirtojiyev sodda gaplar sifatdoshli qurilmalar kiritilishi orqali polipredikativ bo'lishini va semantik-sintaktik nomutanosiblik yuzaga kelishini ta'kidlagan³⁵. O'zbek tilshunoslari bunday qurilmalar haqida turli fikrlarni bildirishgan. Jumladan, A.G'ulomov va M.Asqarovalar sifatdoshli, ravishdoshli va harakat nomli birikmalarni "ajralmas – yumuq bo'laklar" qatoriga kiritadi va "*Yori o'lgan chol kishiga eri o'lgan yo'qmidi?*" misralarida "*eri o'lgan*" birikmasi gapning egasi³⁶ ekanligini ta'kidlaydi.

M.Irisqulov esa bunday birikmalarni alohida bo'lakka ajratadi, xususan, to'ldiruvchi haqidagi ma'lumotlarida quyidagicha fikrni bayon etadi: "*Gulni sevgan tikanni ham sevadi. Gulni* so'zi to'ldiruvchidir, u kesim bilan bog'langan,

³³ Усмонов У.У. Методическая рекомендация по теории синтаксического анализа нулевых элементов в структуре неполных предложений в английской диалогической речи. – Самарканд: СамГПИ, 1990. – 90 с.

³⁴ Махмудов Н, Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 70.

³⁵ Миртожиев М. Гап бўлакларида семантик-синтактик номутаносиблик. – Тошкент: Университет, 2008. – Б. 160.

³⁶ Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – Б. 81.

chunki kesim fe'ning funksional (noaniq) shakli bo'lmish o'tgan zamon sifatdoshi bilan ifodalangan (*sevgan*)³⁷. Vaholanki, aksariyat o'zbek tili grammatikalarida "*Gulni sevgan*" kabi birikmalar kengaygan ega deb yuritiladi. Shuningdek, tilshunos ikkinchi darajali predikativ munosabat³⁸ haqida fikr bildirib, ingliz tilida misol keltirgan, biroq o'zbek tili haqida hech qanday munosabat bildirib o'tmagan. Ko'pchilik tilshunoslar fe'ning funksional formalari bilan yasalgan qurilmalarni bitta bo'lak: murakkab to'ldiruvchi, murakkab aniqlovchi, murakkab ega yoki kengaygan bo'lak³⁹ deb nomlaydi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Ingliz va o'zbek tillarida bir valentli komponentlarning sintaktik-semantik imkoniyatlari**" deb nomlanib, ikkinchi bobda aniqlangan o'rinlarda kelgan bir valentli birliklar ifodalagan sintaksemalarni aniqlashga bag'ishlangan. Bunda bir valentli birliklarning kategorial va nokategorial sintaktik-semantik differensial belgilari sintaksem tahlil asosida aniqlandi hamda boshqa sintaksemalar bilan birikish imkoniyatlari ochib berildi.

Komponentlarga ajratib tahlil qilishda monovalentli elementlar gaplarning tashqi qurilmasini tashkil qilsa, sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda esa monovalentli elementlar gaplarning ichki qurilmasini namoyon qiladi. Gapning tashqi va ichki (*surface and deep structure*) qurilmasini ayrim tilshunoslar transformatsiyaning turli usullari yordamida tahlil qilishga harakat qiladi: "*The deep structure*" deganda *the boy is sleeping* gap varianti tushunilsa, "*The surface structure*" deganda *Is the boy sleeping?* so'roq shakli tushuniladi⁴⁰. Bunday tahlilda gapning formal tomonlari e'tiborga olinib, ularni bevosita ishtirokchilarga ajratib tahlil qilish bilan cheklaniladi. Chomskiyning bu fikri o'zini to'liq oqlamasligini G'.M.Hoshimov, R.M.Asadov kabi olimlarimiz ta'kidlashadi⁴¹.

Sintaksema atamasi birinchi marta rus tilshunosligida G.A.Zolotova tomonidan 1980 yilda muallifning "Rus tilining sintaktik lug'ati haqida"⁴²gi ishida "so'zning sintaktik shakli" atamasi o'rnida ishlatilgan. Unda sintaksema – bu sintaktik-semantik jihatdan boshqa bo'linmaydigan eng kichik birlik, deya ta'riflangan. Sintaksema bir vaqtning o'zida elementar ma'no tashuvchi va murakkabroq sintaktik qurilmaning konstruktiv komponenti bo'lib ham xizmat qiladi. Sintaksemalarning o'ziga xos xususiyatlari: 1) so'zning kategorial semantik ma'nosi; 2) mos keluvchi morfologik shakl; 3) birinchi va ikkinchi xususiyatlaridan kelib chiqib muayyan sintaktik o'rinda voqelanishi.

Biz dissertatsiyamizda sintaksemalarni gap komponenti sifatida tadqiq etamiz. Ikkinchi tur tasniflanishiga ko'ra sintaksemalar gapda quyidagi o'rinlarda keladi: 1) gapning predikatlanuvchi komponenti; 2) gapning predikatlovchi bo'lagi; 3)

³⁷ Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish (darslik). – Toshkent: Ёшлар матбуоти, 2009. – В. 132.

³⁸ Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish (darslik). – Toshkent: Ёшлар матбуоти, 2009. – В. 143.

³⁹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – В. 359-366.

⁴⁰ en.m.wikipedia.org/wiki/Deep_structure_and_surface_structure.

⁴¹ Asadov P.M. Ingliz tili sodda gap qurilmalarida monovalentli va polivalentli komponentlarning sintaksem tahlili. Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент. 2018. – 180 б.

⁴² Золотова Г.А. О синтаксическом словаре русского языка // ВЯ. 1980, №4.

gapning kengaytiruvchilari; 4) gapning yarim predikativ murakkablashtiruvchilari⁴³.

Tadqiqotimizda bir valentli sintaksemalarni aniqlash jarayonida A.M.Muxin yaratgan lingvistik metodlardan⁴⁴, shuningdek, boshqa qator ilmiy tadqiqotlardan⁴⁵ unumli foydalanildi va bu o‘z samarasini berdi. Mazkur lingvistik tahlil usuliga tayangan holda ingliz va o‘zbek tillari sodda gap qurilmasida monovalentli sintaktik birliklar sintaktik aloqalar asosida aniqlanadi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilinayotganda tadqiqot obyektini bo‘lgan sodda gap tarkibidagi monovalentli sintaktik birliklarning semantik maqomini aniqlashda bir valentli elementlarga ega bo‘lgan boshqa gaplar bilan ham taqqoslanadi. Gap tahliliga bunday yondashuvning ijobiy natija berishi ba’zi ilmiy tadqiqotlarda e’tirof etilgan⁴⁶.

Monovalentli sintaktik birliklar ishtirok etgan gaplarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda, asosan, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik (shaxs yoki predmetni ifodalovchi sintaktik birlik), protsessuallik (ish harakatni yoki holatni ifodalovchi sintaktik birlik) hamda kvalifikativlik (sifat, hajm, miqdor, daraja, holat kabilarni ifodalovchi sintaktik birlik) kabilarni tadqiqotchining diqqat markazida bo‘ladi.

Quyidagi misollarni NP₂ komponentning differensial sintaktik semantik belgilariga urg‘u bergan holda tahlil qilamiz.

1. *He returned to the philosopher’s study (IKC, 43.);*
2. *I mean to say (JRHP, 3);*
3. *Dumbledore was rather enjoying himself (JRHP, 31).*

Berilgan gaplarda NP₂ o‘rnidagi komponentlarning barchasi kategorial sintaktik semantik belgilardan protsessuallikni ifodalaydi, nokategorial sintaktik semantik belgilardan – *returned* (1) aksionallikni, *mean to say* (2) stativlikni, *was enjoying* (3) – stativ refleksiv sintaksemi ifodalaydi. Natijada NP₁ komponentlar substansial agentiv (*He*) va stativlik yuklatilgan substansial (*I, Dumbledore*) sintaksemalarni hosil qiladi. Chunki harakat fe’llari aksionallikni, holat fe’llari stativlikni voqelantiradi. Gaplarning sintaksem modelini berishda faqatgina yadro komponentlarni inobatga olishga harakat qilamiz:

⁴³ Золотова Г.Ф. Синтаксический словарь: Репертуар элементарных единиц русского синтаксиса. – М.: Едиториал УРСС, 2006. – С. 5.

⁴⁴ Мухин А.М. Структура предложений и их модели. – Ленинград: Наука, 1968. – 230 с.; Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. – Ленинград: Наука, 1976. – 282 с.; Мухин А.М. Синтаксический анализ и проблема уровней языка. – Ленинград: Наука, 1980. – 304 с.; Мухин А.М. Валентность и сочетаемость глаголов/ Вопросы языкознания, №6 – Москва, 1987. – С.52-58.; Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. – СПб., 2007. – 198 с.

⁴⁵ Чен М. А. Элементы More, Less и парадигматические ряды компаративных градуальных синтаксем. Автореф. дисс.канд. филол. наук. – Ленинград, 1979. – 22 с.; Қаюмова М.С. Инглиз ва ўзбек тилларида негативлик категориясининг синтаксем тадқиқи. Филол. фан. номзоди. дисс. – Самарқанд, 2010. – 155 б.; Усмонов У.У. Неполные предложения в английской диалогической речи. Дисс. канд. филол. наук. – Самарқанд, 1983. – 177 с.; Мухторов З.Дж. Каузальные синтаксеммы в современном английском языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ленинград, 1986. – 19 с.; Жоллыбекова М.Р. Типология неполных предложений диалогической речи в разносистемных языках (на материале английского и каракалпакского языков). Дисс. канд. филол. наук.– Нукус, 2008. – 156 с.; Ашуrow Ш.С. Инглиз ва ўзбек тилларида кесим типологияси// Филол. фан. номзод. дисс. – Самарқанд, 2007. – 153 б.

⁴⁶ Сафаров Ш.С. Принципы системно-семантического анализа синтаксических единиц. – Ташкент: ТГПИ, 1983. – С. 36-38.

1) <i>He returned. 2) I rowed</i>	<i>SbAg . PrAc</i>
2) <i>I mean to say</i>	<i>SbSt . PrSt</i>
3) <i>Dumbledore was enjoying himself</i>	<i>SbSt . PrStRf</i>

O‘zbek tilida yadro predikativ 2 komponenti ifodalagan sintaksemlarini quyidagi misollar asosida o‘rganamiz:

1. *Butun shahar rutubat qo‘ynida edi (ENYH, 16).*
2. *Darrov rediska katta bo‘p qopti (O‘H, 26).*
3. *U ... odamovi bo‘lib qolgandi (ENShTB, 5).*
4. *Onasi haq edi (QA, 68).*
5. *Tuya bir tanga ... (xalq tilidan)*
6. *Sen ham ismingga munosib bir Hasan bo‘lishing kerak (QA, 82).*

Berilgan gaplarda NP₂ o‘rnidagi komponentlar NP₁ komponentlarning holat, xususiyatini anglatmoqda, shunga ko‘ra *rutubat qo‘ynida edi (1)* – ma’naviy ahvolini, *katta bo‘p qopti (2)* – hajmni, *odamovi bo‘lib qolgandi (3)* – xulqdagi o‘zgarishni, *haq edi (4)* – vaziyatni, *bir tanga (5)* – miqdorni anglatuvchi, *Hasan bo‘lishing kerak (6)* – identifikatsiyalovchi sintaksemlar hisoblanadi.

(1) ... <i>shahar rutubat qo‘ynida edi.</i>	SbLcSt . SbQltSt;
(2) <i>Darrov rediska katta bo‘p qopti.</i>	QlfTm . SbQlt . QlfQltVl;
(3) <i>U ... odamovi bo‘lib qolgandi.</i>	SbMn . QlfQltMn;
(4) <i>Onasi haq edi.</i>	SbPsSt . QlfSt;
(5) <i>Tuya bir tanga ...</i>	SbQunMs . QlfQunMs;
(6) <i>Sen ham ... Hasan bo‘lishing kerak</i>	SbId ₁ Add . SbId ₂ Md.

Yadro predikativ 2 o‘rnidagi komponentlar *-niki* qo‘shimchasini olgan ot yoki olmoshlar bilan ifodalansa, possessivlik differensial sintaktik-semantik belgisini yuzaga keltiradi⁴⁷, shuningdek, o‘zbek tilida *bor*, *yo‘q* leksemalarida ham possessivlik mujassamlashgan bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tilidagi yadro predikativ komponent o‘rnida ifodalangan sintaksemlar va ularning boshqa sintaksemlar bilan bog‘lanishi quyidagi jadvalda aks topgan (1-2-jadvallar):

1-jadval.

Ingliz tilidagi $\tilde{N}P_2$ komponenti ifodalagan sintaksemlar va ularning boshqa sintaksemlar bilan bog‘lanishi.

	$\tilde{N}P_2$	PrAc	PrSt	PrAcDr	PrAcRf	SbId2	QlfSt	QlfQlt	SbPs
$\tilde{N}P_1P_1$	$\tilde{N}DP_1$								
SbStAg		+							+
SbStSt			+						
SbObAg		+							
	SbLcOb			+					
	SbObAg	+			+				
	SbLcObAg				+				
	SbObId ₁					+			
	SbObSt							+	+
	SbObQlt								+

⁴⁷ Xotamova P.I. Ingliz va o‘zbek tillari gap tarkibida possessivlik (egalik) sintaksemlarining qiyosiy-funksional tadqiqi. // Fil. fan. bo‘yicha PhD ... diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – B. 21.

O‘zbek tilida \tilde{NP}_2 komponenti ifodalagan sintaksemalar va ularning boshqa sintaksemalar bilan bog‘lanishi

	\tilde{NP}_2	PrAcCnt	PrSt	PrAcCs	PrAcDrMn	SbSt	QlfSt
\tilde{NP}_1P_1	\tilde{NDP}_1						
SbQun ExAg		+					
SbStSt			+				
SbAgSt						+	
	SbLcOb			+			
	SbAg		+				
	SbOb				+		
	SbObSt						+
	SbAgAdd			+			

Ingliz tilidan farqli ravishda, o‘zbek tilida gap tarkibida ketma-ket uchtagacha protsessual aksional sintaksemalar joylashishi mumkinligi kuzatildi. Shuningdek, noyadroviy predikativ aloqaga kirishuvchi sintaktik birliklarning har ikkalasi ham bir yoki ikki valentli bo‘lishi mumkinligi o‘zbek tilining o‘ziga xosligidan dalolat beradi.

XULOSA

1. Jahon tilshunosligida valentlik nazariyasini aksariyat tilshunoslar fe‘lning leksik ma‘nosi bilan bog‘laydi. Valentlikka bunday yondashuv faqat semantik valentlikni aks ettiradi. Sintaktik valentlikni tilshunoslar ikki xil – obligator va fakultativ valentliklarga ajratadi. Ammo bu yondashuv ham tadqiqotchiga ravon yo‘llanma bera olmaydi. Gap qurilmasidagi sintaktik birlik bir sintaktik aloqa asosida ishtirok etsa, bir valentli komponent hisoblanadi, ya‘ni sintaktik valentlik sintaktik aloqalarga nisbatan aniqlanadi.

2. An‘anaviy tilshunoslikda muhokama qilingan sintaktik aloqalar masalasiga e‘tibor qaratilib, sintaktik aloqalar sifatida e‘tirof etib kelingan moslashuv, bitishuv, boshqaruv to‘g‘risidagi ingliz va o‘zbek tilshunoslarining fikrlari o‘rganildi va moslashuvning morfologik, bitishuv va boshqaruvning leksik aloqa ekanligi haqida xulosa bildirildi. Struktur sintaksis doirasida gap qurilishi tahlilida sintaktik aloqalardan yadro predikativ, subordinativ, koordinativ, noyadroviy predikativ, nolga teng predikativ, introduktiv va appozitiv aloqalar hisobga olinishi e‘tirof etildi va tadqiqotda ushbu tushunchalardan foydalanildi.

3. Bir valentli yadro predikativ 1 faqat yadro predikativ aloqa vositasida NP_2 (kesim) vazifasidagi sintaktik birlik bilan munosabatga kirishadi. Yadro predikativ 1 komponenti ingliz va o‘zbek tillarida ko‘plab o‘xshash xususiyatlarga ega, jumladan, ular gap boshida joylashadi va deyarli barcha so‘z turkumlari bilan ifodalana oladi. Tillararo farq asosan kesim bilan shaxs va sonda moslashishida kuzatiladi. Shuningdek, o‘zbek tilida ega vazifasidagi olmoshlar juda ko‘p

holatlarda tushib qolishi mumkin, chunki kesim tarkibidagi shaxs-son qo'shimchasi egani aks ettira oladi. Inglizcha gaplar tarkibida NP₁ komponent o'rnida otlashgan sifat aniq artikl bilan, mavhum otlar qaratqich aniqlovchi bilan kelishi misollarda ko'p uchradi.

4. Ingliz va o'zbek tillarida bir valentli yadro predikativ 2 komponent sof fe'l, modal fe'lli birikmalar, aspekt fe'lli birikmalar, ot, sifat, son, kishilik va egalik olmoshlari bilan ifodalanishida o'xshashlik bo'lsa, ularning ifodalanishidagi farq asosan ularning turli tillar tizimiga oidligidan kelib chiqadi. O'zbek tilida NP₂ o'rnidagi elementlar bir qator kelishik qo'shimchalari, egalik affikslari bilan kelsa, ingliz tilida bu holat kuzatilmadi.

5. Ingliz tilida noyadroviy predikativ 2 (ÑP₂) komponentlar an'anaviy grammatikadagi infinitivli qurilmalar tarkibidagi fe'ning funksional shakli hisoblanadi, u ot yoki olmosh bilan ifodalangan noyadroviy predikativ 1 komponentiga noyadroviy predikativ aloqa asossida bog'lanadi. Ularning noyadroviy bo'lak deyilishiga sabab, ular o'rtasida kesimlik munosabati bo'lsa-da, gapning asosini tashkil eta olmaydi. O'zbek tilidagi sifatdoshli, ravishdoshli va harakat nomli o'ramlar ingliz tilidagi shunday qurilmalardan anchagina farq qiladi, ya'ni ingliz tilida fe'ning funksional shakllari bilan yasalgan qurilmalarda birinchi komponent ikki valentli, ikkinchi komponent bir valentli bo'ladi. O'zbek tilida esa, bu qurilmalar tarkibidagi ot yoki olmosh fe'ning funksional shakllaridan oldin ham, keyin ham kelishi, shuningdek, predikatlanuvchi va predikatlovchi qismlar bir yoki ikki valentli bo'lishi kuzatildi. Bunday qurilmalarning komponenti gapning egasi vazifasida kelsa, ikki valentli, aniqlovchi yoki to'ldiruvchi vazifasida kelganda bir valentli sintaktik birlik hisoblanadi.

6. Noyadroviy tobe komponentlar gapning asosini tashkil qila olmaydi va birorta hokim yoki tobe bo'lakka tobe bo'lib, unga subordinativ aloqa asosida bog'lanadi, bunda bir gap tarkibida tobe element ham tayanch, ham tobe bo'lak bo'lishi mumkin. Bir valentli tobe komponentlar ingliz va o'zbek tilida ot, olmosh, son, ravish va fe'l shakllari bilan ifodalanishi mumkin. Ushbu tillarda tobe komponentlarning farqi shundaki, o'zbek tilida ular bosh kelishik shaklida deyarli uchramaydi va bu o'zbek tilining agglyutinativ tillar qatoriga kirishi bilan izohlanadi.

7. Monovalentli sintaktik birliklar ishtirok etgan gaplarni sintaksemlarga ajratib tahlil qilishda, asosan, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik (shaxs yoki predmetni ifodalovchi sintaktik birlik), protsessuallik (harakatni yoki holatni ifodalovchi sintaktik birlik) hamda kvalifikativlik (sifat, hajm, miqdor, daraja, holat kabilarni ifodalovchi sintaktik birlik) doirasida nokategorial differensial sintaktik semantik belgilarini yadro predikativ 1, yadro predikativ 2, noyadroviy predikativ 2 hamda noyadroviy tobe komponentlar o'rnida aniqladik.

8. Ingliz tilida yadro predikativ 1 bo'lagi o'rnida kelgan sintaktik birliklar kategorial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik doirasida agentiv, obyekt, identifikatsiyalanuvchi, kvalitatiflik yuklatilgan, stativlik (holat) yuklatilgan, kvantitativlik yuklatilgan, possessiv sintaksemlarni; prosessuallik bazasida aksional va possessiv sintaksemlarni voqelantirishi va prosessual aksional,

protsessual stativ, protsessual direktiv, protsessual modal aksional, substansial identifikatsiyalovchi, substansial possessiv, kvalifikativ stativ, kvalifikativ kvalitatif sintaksemalar bilan bogʻlanishi kuzatildi.

9. Oʻzbek tilida NP₁ oʻrnida kelgan komponent substansiallik doirasida identifikatsiyalanuvchi, agentiv, obyekt, stativlik yuklatilgan, kvalitatiflik yuklatilgan, kvantitativlik yuklatilgan sintaksemalarni, protsessuallik doirasida aksional, stativlik yuklatilgan, modal, negativ kabi sintaksemalarni ifodalashi mumkin. Ushbu sintaksemalar NP₂ oʻrnidagi protsessual aksional, protsessual stativ, substansial identifikatsiyalovchi, kvalifikativ kvalitatif, kvalifikativ kvantitativ, kvalifikativ stativ sintaksemalar bilan sintaktik aloqaga kirishadi.

10. Yadro predikativ 2 komponent oʻrnida ingliz tilida ham, oʻzbek tilida ham 18 turdagi sintaksema ifodalanishi kuzatildi. Biroq bu ikki tilda ifodalangan sintaksemalarning turida farq mavjud. Oʻzbek tilidagi kauzal, resultativ, ekzistensial va terminativ sintaksemalar ingliz tilida kuzatilmadi. Ingliz tilidagi finitiv, reflektiv va modal sintaksemaning baʼzi turlari oʻzbek tilida uchramadi.

11. Ingliz tilida noyadroviy predikativ 2 komponent oʻrnida kelgan sintaktik birliklar kategorial sintaktik-semantik belgilardan protsessuallik, substansiallik va kvalifikativlik belgilari bazasida ishtirok eta oladi va ular vositasida protsessual aksional, protsessual aksional reflektiv, protsessual stativ, protsessual direktiv, substansial identifikatsiyalovchi, substansial possessiv, kvalifikativ kvalitatif, kvalifikativ stativ sintaksemalar voqelanadi. Oʻzbek tilida NP₂ oʻrnida kelgan sintaktik birliklar protsessuallik doirasida aksional, direktiv, kauzal, modal negativ, stativ va kvalifikativlik doirasida kvalitatif, kvantitativ va stativ sintaksemalarni ifodalashi aniqlandi.

12. Ingliz tilida noyadroviy tobe komponentlar har uchala kategorial sintaktik semantik belgilar doirasida yigirma yettita nokategorial differensial sintaktik semantik belgilarni voqelantira olishi va 11 xil sintaksema bilan sintaktik aloqaga kirishi kuzatildi. Oʻzbek tilida bunday sintaksemalar turli-tumandir. Ular kategorial belgilardan substansiallik, protsessuallik va kvalifikativlik qamrovida 34 ta nokategorial differensial sintaktik semantik belgilarni ifodalashini va 17 xil sintaksemalar bilan bogʻlanishini aniqladik.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

МАХМУДЖОНОВА МЕХРИБОН ХУРШЕДОВНА

**СЕМАНТИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ОДНОВАЛЕНТНЫХ КОМПОНЕНТОВ ПРОСТОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ
(НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание,
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по филологическим наукам (PhD)**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/Fil3867.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский) размещён на веб-сайте Научного совета (www.samdhti.uz) и Информационном образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель: **Сафаров Шахриёр Сафарович**
доктор филологических наук, профессор

Расмий оппонентлар: **Хайруллаев Хуршидjon Зайниевич**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Саримсоков Хуршид Абдималикович
доктор филологических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел.: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером _____). Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, дом 43. Тел: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
Протокол реестра рассылки за № __ от «__» _____ 2025 года.

Н.З.Насруллаева

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

У.У.Кулдошов

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам, доцент

Д.А.Киселёв

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании проведено значительное число исследований по вопросу структуры предложения и синтаксических связей между его частями, а также по сравнительному изучению разносистемных языков. В частности, проведен ряд исследований по вопросу дифференциации семантического, лексического и стилистического подходов к теории валентности, принципов типологического сопоставления показателей валентности синтаксических единиц в структуре простого предложения. В большинстве исследований, посвященных различным аспектам теории валентности, проблема изучалась исходя из лексико-семантических особенностей глагола. Необходимость детального освещения данного вопроса с точки зрения синтаксического и семантического уровней обуславливает актуальность темы и необходимость проведения исследований на основе новых подходов к данному вопросу.

В мировом языкознании результаты исследований фонологического, лексического и семантического уровня, в частности выявления значений и функциональных особенностей синтаксической валентности и синтаксических единиц, имеют большое значение как для межъязыкового сравнительного анализа, так и для художественного перевода. Существуют различные подходы к явлению синтаксической валентности, имеющие важное значение в лингвистике. С этой точки зрения актуальной является необходимость исследования таких вопросов, как определение валентности в парадигматическом и синтагматическом планах, анализ предложений на основе синтаксической валентности и раскрытие семантики синтаксических единиц на материале неродственных языках.

В узбекском языкознании были проведены исследования по теории валентности на различных уровнях языка, в частности, широко изучалась фонологическая валентность, определение лексической и лексико-семантической валентности осуществлялось в основном на основе лексических особенностей глагола. Хотя были достигнуты значительные успехи в изучении места и значения лексической и семантической валентности языковых единиц, ощущается недостаточность монографических работ по валентности на синтаксическом уровне. Существует также необходимость применения новых методов синтаксического анализа, так как традиционный фрагментарный способ анализа предложения себя не полностью оправдывает. К числу актуальных проблем данной исследовательской работы относится выявление сущности представления о том, что на синтаксическом уровне валентностью может обладать любая самостоятельная категория слов, сопоставление содержания предложения английского и узбекского языков с помощью современных методов исследования компонентов и синтаксиса, использование различных методов трансформации.

Знание языков, безусловно, имеет важное значение в процессе подготовки квалифицированных специалистов отрасли для развития и

процветания нашей страны. В частности, в области лингвистики изучение узбекского языка в сравнении с языками мира, включая английский, является требованием сегодняшнего дня. В Указе Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» на первый план выносятся задачи «внедрения на основе международного опыта передовых стандартов высшего образования, в том числе поэтапного перехода от образования, ориентированного на получение теоретических знаний в учебных программах, к системе образования, ориентированной на формирование практических навыков»⁴⁸, и обуславливает необходимость обогащения области современного языкознания инновационными принципами и критериями исследования.

Настоящее исследование вносит определенный вклад в реализацию задач, обозначенных Указами Президента Республики Узбекистан УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлениями Президента Республики Узбекистан ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране ширококомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, ПП-4884 от 11 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», ПП-4963 от 25 января 2021 года «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности и внедрению системы непрерывного профессионального развития в сфере дошкольного и школьного образования», ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», и другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено согласно приоритетному направлению развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике теория валентности и сравнительное изучение языков находятся в постоянном центре внимания ученых-лингвистов. Научно-теоретические исследования по этому вопросу в общем языкознании провели ряд ученых, в частности

⁴⁸ Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года. Режим доступа <https://lex.uz/docs/4545887>

европейские лингвисты Л.Теньер, Дж.Эрбен, Г.Зандау, К.Е.Зоммерфельдт, В.Бондсио, Р.Лонакер, Э.Р.Логачева, Г.Джоанна, Л.Гаэта, Т.Хербст, С.Шуллер, В.Коларова, Д.Дж.Аллертон, С.Лураги, Э.Сауса, А.Мальчуков, Б.Комри, Дж.Паневова⁴⁹; следует особо отметить работы таких российских лингвистов, как С.Д.Кацнельсон, В.В.Бурлакова, Н.Н.Степанова, М.Д.Степанова, Г.Хельбиг В.Ю.Розенцейг, С.М.Кибардина, А.М.Пешковский, Н.И.Филичева, В.А.Фролова, И.Б.Долинина, М.В.Влавацкая, Е.В.Разова, В.В.Кораблин, Е.А.Красильникова, Ю.Д.Апресян, Б.А.Абрамов, Е.Н.Мельникова, С.М.Панкратова, Е.А.Хабибулина, А.Мустайоки⁵⁰.

Узбекские лингвисты также опираются на идею вербоцентризма в определении валентности на синтаксическом уровне. В частности,

